



STATE GOVERNANCE IN THE KOKAND KHANATE

I.M. Khaydarov

Professor of the Department of "History of the Peoples of Central Asia"

Doctor of Historical Sciences (DSc)

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Shohruza Gulomova

Institute of Oriental Languages and Literature

Higher School of Korean Studies

1st-year student

shohruzagulomova629@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kokand Khanate, state governance, central and local administration, religious administration, offices and positions.

Received: 18.12.25

Accepted: 19.12.25

Published: 20.12.25

Abstract: This article is devoted to the study of the state governance system of the Kokand Khanate, which was established in the mid-18th century and functioned until the second half of the 19th century. The article reveals the main features of the central and local administrative systems formed in the Kokand Khanate. In particular, the role and authority of the khan's power, as well as the functions of military and administrative structures in governance, are analyzed. Additionally, the administrative-territorial structure of the khanate, the system of religious administration, and the formation and activities of state offices and positions are examined on the basis of historical sources. The analyses presented in the article contribute to a deeper understanding of the state governance system of the Kokand Khanate.

QO'QON XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

I.M Xaydarov

"Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrası professori, t.d.f (DSc)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Shohruza G'ulomova*Koreyashunoslik oliy maktabi 1-bosqich talabasi**Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti*shohruzaqulomova629@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, davlat boshqaruvi, markaziy va mahalliy boshqaruv, diniy boshqaruv, mansab va lavozimlar.

Annotatsiya: Ushbu maqola XVIII asrning o'rtalarida tashkil topib, XIX asrning ikkinchi yarmigacha faoliyat yuritgan Qo'qon xonligining davlat boshqaruv tizimini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada Qo'qon xonligida shakllangan markaziy va mahalliy boshqaruv tizimining asosiy jihatlari ochib beriladi. Xususan, xon hokimiyatining o'rni va vakolatlari, boshqaruvda harbiy hamda ma'muriy tuzilmalarning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, xonlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi, diniy boshqaruv tizimi va davlat mansab hamda lavozimlarining shakllanishi hamda faoliyati tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada keltirilgan tahlillar Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ**И.М. Хайдаров***Профессор кафедры «История народов Центральной Азии»**Ташкентский государственный университет востоковедения**Доктор исторических наук (DSc)**Ташкент, Узбекистан***Шохруза Гуломова***Студентка 1-го курса**Институт языков и литературы народов Востока,**Высшая школа корееведения*shohruzaqulomova629@gmail.com*Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кокандское ханство, государственное управление, центральное и местное управление, религиозное управление, должности и посты.

Аннотация: Данная статья посвящена освещению системы государственного управления Кокандского ханства, которое было образовано в середине XVIII века и функционировало до второй половины XIX века. В статье раскрываются основные особенности центральной и местной системы управления, сформировавшейся в Кокандском ханстве. В частности, анализируются роль и полномочия ханской власти, а также значение военных и административных структур в

управлении государством. Кроме того, на основе исторических источников рассматриваются административно-территориальное устройство ханства, система религиозного управления, а также формирование и деятельность государственных должностей и постов. Приведённые в статье анализы способствуют более глубокому пониманию системы государственного управления Кокандского ханства.

Qo‘qon xonligi Minglar sulolasi tomonidan boshqarilgan bo‘lib, oliy hokimiyat xon qo‘lida jamlangan. Xonlikning vujudga kelishi XVIII asr boshlarida Movarounnahrda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik bilan bog‘liqdir. Xususan, 1704-yilda Ashtarxoniylar davlatida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy tanazzul, Chodak xo‘jalari boshchiligidagi isyonlar hamda Farg‘ona vodiysining bir qismining egallanishi Qo‘qon xonligining shakllanishiga zamin yaratdi. Minglar urug‘ining yetakchisi Shohruxbiy dastlab otaliq sifatida hokimiyatni boshqargan bo‘lsa, 1709-yilda o‘zini xon deb e‘lon qildi. Uning o‘g‘li Muhammad Abdurahimbiy (1721–1733) hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining hududi kengayib, Andijon, Xo‘jand va O‘ratepa bosib olindi. Shuningdek, Buxoro amirligiga qarashli Samarqand va Kattaqo‘rg‘on egallanib, Shahrisabzga harbiy tahdidlar uyushtirildi.

Qo‘qon xonligi monarxik davlat bo‘lib, davlat boshqaruvida oliy hokimiyat xon qo‘lida jamlangan. Xonlikda hokimiyatni mustahkamlash maqsadida qabila boshliqlari, zodagonlar hamda diniy rahbarlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Davlat boshqaruvi tizimida muhim mansab va lavozimlar mavjud bo‘lib, ular xon hokimiyatining amalga oshirilishida muhim o‘rin tutgan.

Davlat boshqaruvidagi asosiy lavozimlar quyidagilardan iborat edi:

Devonbegi – davlat ma‘muriyatining eng yuqori mansabdorlaridan biri bo‘lib, moliya va soliq tizimini boshqarish, davlat daromadlarini yig‘ish hamda ularni nazorat qilish bilan shug‘ullangan. Devonbegi o‘z faoliyati yuzasidan bevosita xonga hisobot bergan.

Qushbegi – xonlikdagi harbiy ishlar uchun mas‘ul bo‘lgan yuqori lavozimli mansabdor hisoblanib, qo‘shinlarni boshqarish, harbiy tartibni ta‘minlash va jangovar harakatlar vaqtida xonning eng yaqin tayanchi sifatida faoliyat yuritgan. Qo‘qon xonligida harbiy tuzilma davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Dodhoh – sud ishlari bilan shug‘ullanuvchi mas‘ul mansabdor bo‘lib, adolat va qonun-tartibotning ta‘minlanishi uchun javobgar hisoblangan. Dodhoh shariat qoidalariga asoslanib sud jarayonlarini olib borish, huquqiy nizolarni hal etish hamda jazo choralari belgilash vakolatiga ega bo‘lgan.

Qo‘qon xonligida diniy rahbarlarning o‘rni davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan. Shayxulislom diniy tizimning eng oliy vakili bo‘lib, shariatga asoslangan qonun-qoidalar va tartiblarning amal qilinishini nazorat qilgan. Qozilar va muftiylar esa shariat qonunlarini qo‘llash, sud ishlarini yuritish hamda diniy-huquqiy masalalarni hal etishda muhim vazifalarni bajargan .

Qo‘qon xonligida unvon va mansablar tizimi davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Mazkur mansab va unvonlar ularning vakolat doirasi hamda bajaradigan vazifalariga qarab harbiy, harbiy-ma‘muriy, saroy va ma‘muriy lavozimlarga, shuningdek diniy mansablar va qozixona tizimi amaldorlariga ajratilgan. Ushbu tizim xon hokimiyatini mustahkamlashga va davlat boshqaruvining uzluksiz faoliyat yuritishiga xizmat qilgan. Manbalarda qayd etilishicha, xon saroyida bir qator muhim harbiy unvon va mansablar mavjud bo‘lgan. Ulardan eng yuqori lavozimlardan biri amir ul-umaro bo‘lib, u xonning eng yaqin maslahatchisi sanalgan va davlat miqyosidagi muhim masalalarni hal etishda faol ishtirok etgan. Amir ul-umaro mansabdorlarni tayinlash va lavozimdan ozod etish, ichki tartib-intizomni saqlash hamda saroy faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan. Harbiy tuzilmaning keyingi muhim bo‘g‘ini amirlashkar hisoblanib, u qo‘shinlarning umumiy boshqaruvini amalga oshirgan. Qo‘qon xonligida mingboshi unvoni amirlashkar martabasiga tenglashtirilgan bo‘lib, mingboshi ma‘lum hududdan ming nafar otliq askar yetkazib berish majburiyatini bajargan. Harbiy yurishlar davrida mingboshi qo‘shinlarga bevosita boshchilik qilib, lashkarboshi sifatida faoliyat yuritgan. Ayrim davrlarda ushbu mansab egalari vazirlik lavozimiga nomzod sifatida ham ko‘rilgan.

Quyi harbiy bo‘g‘inlarda botirboshi mansabi mavjud bo‘lib, u bir necha yuz nafar askardan iborat bo‘linmalarga rahbarlik qilgan. Botirboshilar viloyatlarda harbiy masalalar bilan bir qatorda, ayrim hollarda qurilish va sug‘orish ishlarini ham boshqargan. Tarixiy manbalarda Otabek botirboshi kabi nufuzli shaxslarning faoliyati alohida qayd etiladi.

Saroydagi muhim mansablardan biri otaliq bo‘lib, u xonzodalarning tarbiyasi va siyosiy tayyorgarligi bilan shug‘ullangan. Otaliqlar tomonidan tarbiyalangan shahzodalar taxtga o‘tirgach, ularning murabbiylari odatda davlat boshqaruvida yuqori lavozimlarga ko‘tarilgan.

Beklarbegi unvoni xonning yaqin qarindoshlari yoki ishonchli shaxslariga berilgan bo‘lib, u yirik hududlar va muhim viloyatlarni boshqarish vakolatini anglatgan. Biy esa turkiy qabilalar va urug‘larning boshlig‘i sifatida mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan.

Markaziy ma‘muriy tizimda devonbegi muhim o‘rin egallagan. U xon devoniga rahbarlik qilib, davlatning moliyaviy va ma‘muriy ishlarini boshqargan. Devonbegi mansabi markaz bilan bir qatorda Toshkent va Dashti Qipchoq hududlarida ham mavjud bo‘lgan.

Davlat moliya tizimida xazinachi mansabi asosiy hisoblangan. U davlat xazinasining yuritilishi, mablag‘larning hisob-kitobi va saqlanishi uchun javobgar bo‘lgan. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat olib borgan va xonning ishonchli mulozimlari qatoriga kirgan.

Saroy boshqaruvida inoq xonning eng yaqin vakillaridan biri sifatida turli siyosiy va tashkiliy topshiriqlarni bajargan. Eshikog'asi (chehraog'asi) esa saroy xavfsizligini ta'minlab, xon huzuriga kirish tartibini nazorat qilgan.

Saroy hujjatchilik ishlarida parvonachi muhim vazifani bajargan. U xon nomiga kelgan yozma murojaatlar va hujjatlarni qabul qilib, ularning ijrosini ta'minlash hamda javoblarni yetkazish bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligida yer-suv munosabatlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida muhim o'rin egallagan. Yer va suvdan foydalanish huquqi asosan hukmron tabaqa qo'lida jamlangan bo'lib, yer egaligi aniq huquqiy shakllar asosida tartibga solingan. Tarixiy manbalarda Qo'qon xonligida amal qilgan yer egaligining bir necha asosiy turlari qayd etiladi.

Yer egaligining muhim shakllaridan biri xiroj yerlari bo'lib, ular xususiy yer egalari tasarrufida bo'lgan va hosildan belgilangan miqdorda soliq undirilgan. Davlat yerlari xon mulki hisoblangan bo'lib, bu toifaga o'rmonlar, to'qaylar, yo'l va ko'priklar kabi umumiy ahamiyatga ega hududlar kirgan. Xon farmoni asosida ayrim yirik amaldorlarga berilgan yerlar esa alohida in'om yerlar sifatida ajratilgan. Bundan tashqari, vaqf yerlari diniy muassasalar tasarrufiga o'tkazilib, ularning daromadi masjid, madrasa va ziyoratgohlar ehtiyojlariga yo'naltirilgan.

Xon ixtiyoridagi amloq yerlar alohida toifani tashkil etib, manbalarda ular "zamini xos" nomi bilan tilga olinadi. Bunday yerlar ayrim shaxslar yoki guruhlariga foydalanish uchun berilgan bo'lib, yer egalari uni o'z mablag'i hisobidan obod qilgan va yetishtirilgan hosildan davlat foydasiga soliq to'lagan. Ushbu soliq miqdori odatda xirojdan yuqori bo'lib, hosilning o'ndan bir qismidan o'ndan beshigacha bo'lgan ulushni tashkil etgan.

Qo'qon xonligida yerga egalik qilishning mulk, ijara, urg'u va tanho shakllari ham amal qilgan. Mulk – boylar va zodagonlarga qarashli yerlar bo'lib, ular dehqonlarga ijaraga berilgan. Ijara shakli yer bilan bir qatorda sug'orish inshootlari, savdo rastalari, tegirmonlar va boshqa ko'chmas mulklarni ham qamrab olgan.

Urg'u yo'li bilan yer va mol-mulk davlat foydasiga musodara qilingan va keyinchalik alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga berilgan. Tanho esa hukmdor tomonidan xizmat evaziga in'om etilgan mulk shakli bo'lib, tanhodorlar o'zlariga biriktirilgan hudud yoki mulkning daromadidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Ayrim hollarda tanho huquqi meros tariqasida avloddan-avlodga o'tgan. Harbiy xizmat evaziga berilgan tanho daromadlari tarxon nomi bilan atalgan.

Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi tizimi monarxik xarakterga ega bo'lib, oliy hokimiyat xon qo'lida jamlangan edi. Boshqaruvning samarali ishlashi markaziy va mahalliy idoralar, harbiy tuzilmalar hamda diniy arkonlar faoliyatiga tayangan holda amalga oshirilgan. Xon hokimiyatini amalda ta'minlashda amir ul-umaro, amirlashkar, devonbegi, mingboshi, botirboshi kabi harbiy va

ma'muriy mansabdorlar muhim rol o'ynagan. Shuningdek, saroy va boshqa ma'muriy lavozimlar davlat boshqaruvida intizom va uzluksizlikni saqlashga xizmat qilgan.

Xonlikda unvon va mansablar tizimi vazifalar va vakolatlar asosida aniq tabaqalashtirilgan bo'lib, bu holat davlat boshqaruvida mas'uliyat va bo'ysunish mexanizmlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Diniy mansabdorlar va qozixona tizimi shariat qonunlari asosida sud-huquqiy masalalarni hal qilib, jamiyatda adolat va tartibni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yer-suv munosabatlari xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Yer egaligi xiroj, davlat, vaqf, amloq, tanho va boshqa shakllarda amalga oshirilib, davlat manfaatlari bilan hukmron tabaqaning iqtisodiy manfaati uyg'unlashtirilgan. Soliq va yer taqsimoti tizimi orqali xon hokimiyati mustahkamlangan hamda davlatning moliyaviy asoslari ta'minlangan.

Umuman olganda, Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi, mansablar tizimi va yer egaligi mexanizmi o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda shakllangan. Ushbu tizimni chuqur o'rganish Qo'qon xonligining siyosiy tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari hamda iqtisodiy mexanizmlari haqida to'liqroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi va Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishoqjon To'ra Ibrat, Tarizi Farg'ona. Taruqbek Dolimov, Nurislom Jabborov. Toshkent: "Ma'naviyat", 2005. – 57 b.
2. Muhammad Ali Xazini. Saylov va Buxoro tarixi (sayyohat va xotiralar). G'. Muhammad Do'stimizov to'pl., muqaddima, izohlar va qayta tahrirlar muallifi Sh. Vohidov. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010. – 716 b.
3. Reshidiy, V. V., Xoliqov, X. X. O'zbekiston va Taniq Turkiya. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009. — 292 b.
4. Kuzikulov, I. R. Qo'qon xonligi tarixi (o'quv-uslubiy qo'llanma). Namangan: "Namangan", 2014. – 87 b.
5. Akbarov, R. Qo'qon xonligi tarixi. Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2016. – 300 b.
6. Bobobekov, H. Qo'qon tarixi. Toshkent: "Fan", 1996. – 340 b.
7. Starr, F. Ferghana Valley: The Heart of Central Asia. New York: Business Park Drive, 2011. — 465 p.